

## QADIMGI MISR : DIN VA YOZUV

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Yo'ldoshev Sunatullo**

*[yoldoshevsunnat806@gmail.com](mailto:yoldoshevsunnat806@gmail.com)*

*Tel. +998940763105*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Norqulov O'lmas**

*[norqulovolmas559@gmail.com](mailto:norqulovolmas559@gmail.com)*

*Tel. +99842951125*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Asadov To'lqin**

*[tursinbekasadov@gmail.com](mailto:tursinbekasadov@gmail.com)*

*Tel. +998996771827*

**ANNOTATSIYA:** Joriy maqolada jahonning eng qadimgi mamlakatlaridan biri bo'lgan Misr hamda uning madaniyati haqida so'z boradi. Ma'lumki tarixda misrliklar dastlabki madaniyat yaratgan xalqlardan biri hisoblanadi. Arxeologlar uchun ham Misr tarixi doimo qiziq bo'lgan. Fir'avnlarning aql bovar qilmas xazinalari va piramidalar siri qadimgi Misr mavzusini doimo qiziqarli va sirli qilib tasvirlaydi.

**KALIT SO'ZLAR:** Nil vodiysi, qora tuproq, delta, "nom"lar, piramidalar, iyeroglif, Memfis, fir'avn, Rozett bitiktoshi

**ABSTRACT:** This article is about one of the oldest countries in the world, Egypt, and its culture. It is known in history that the Egyptians are one of the peoples who created the first culture. The history of Egypt has always been interesting for archaeologists. The incredible treasures of the pharaohs and the mystery of the pyramids always make the subject of ancient Egypt interesting and mysterious.

**KEY WORDS:** Nile Valley, black soil, delta, "names", pyramids, hieroglyph, Memphis, pharaoh, Rosetta stone

**АННОТАЦИЯ:** Эта статья об одной из древнейших стран мира, Египте, и ее культуре. Из истории известно, что египтяне – один из народов, создавших первую культуру. История Египта всегда интересовала археологов. Невероятные сокровища фараонов и тайна пирамид всегда делают тему Древнего Египта интересной и загадочной.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** долина Нила, чернозем, дельта, «имена», пирамиды, иероглиф, Мемфис, фараон, Розеттский камень

**Kirish.** Misr geografik jihatdan Afrika qit'asining shimoli-sharqida Nil daryosi O'rtayer dengiziga keng tarmoq hosil qilib quyiladigan hududda joylashgan. Iqlimi

tropik mintaqda joylashgani uchun har doim bu hududlar quyosh nuridan bahramand. Bu o'z navbatida aholining dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun ham qulay imkon yaratgan. Nil daryosi toshganida o'zi bilan unumdor balchiq olib kelgan va voha bo'ylab yoygan. Gerodot Misr—Nilning sovg'asi, — deb ta'riflaydi. Chunki, Nil daryosi Misr iqtisodiy hayotida yetakchi o'rin tutgan. Nilda haryili 19-iyunda toshqin ko'tarilgan. Bu toshqin sentabro'rtalarigacha davom etgan. Noyabrda daryo o'z o'zaniga tushgan. Ekilgan yer aprel-mayda hosil keltirgan. Nil daryosi Misr iqtisodiyotining asosi dehqonchilikda muhim o'rin tutgan. Mo'I-ko'l hosilsun'iy sug'orish asosida olingan. Misrliklar dehqonchilik ishlariga ko'ra yilni 3 mavsumgabo'lganlar: to'la suv mavsumi — Nil toshqini (iyul o'rtalari), ekin, unish mavsumi ekishdan hosil yig'ishgacha bo'lgan qishloqxo'jalik ishlarini to'liq sikli (noyabr va may o'rtalari), quruq mavsum-yerni dam olish vaqti va shafqatsiz jazirama (mayo'rtalaridan iyul o'rtalarigacha) davri. Suv omborlari qurilib, Nil vodiysi to'g'on, kanallar bilan to'g'ri burchakli havza (basseyn)larga bo'lingan. Ekinlar: arpa, bug'doy, kunjut, kanop, xurmo, kokos palmalari, akatsiya (qurilish materiallari uchun), uzum vamevali daraxtlar o'sgan. Asosiy ovqat hisoblangan baliq ko'p bo'lgan. Chorva mollari: qo'y, echki, sigir, eshak, cho'chqa boqilgan. Qadimgi misrliklar irqiy ko'rinishi "negroid" va "mongoloid" irqilari qo'shilishidan paydo bo'lgan bo'lib ular: o'rta bo'yli, to'ladan kelgan, soqoliqirilgan, sochlari qisqa qirqilgan. Ozingina turtib chiqqan daxon. qalin lablar, uzunchoq boshga ega bo'lganlar. Misr tarixini o'rganar ekanmiz turli manbalarga murojat qilamiz. O'z navbatida bu manbalar yetti guruhga bo'lib o'rganiladi. 1) Yozma manbalar, tarixiy asarlar, badiiy adabiy, ilmiy, diniy matnlar, hujjat va yo'riqnomalar.

2) Moddiy madaniyat yodgorliklari: shahar, qal'a, ibodatxona, sog'ona, uylar, sopol idishlar, haykallar va h. k.

3) Xalq og'zaki ijodiyoti: qo'shiq, ertak, maqollar, afsona, axloqiy- etik asarlar.

4) Tilshunoslik ma'lumotlari.

5) Etnografiya ma'lumotlari

6) Antropologiya ma'lumotlari: mumiyo, skelet, freska, relyeflarda odamlarni jismoniy tuzilishini o'rganish mumkin bo'lgan tasvirlar.

7) Geografik muhit va landshaft, kanallar, yo'llar.

**Asosiy qism.** XIX asr boshigacha Qadimgi Misr madaniyati va tarixi bilan hech kim shug'ullanmadi. Misr yozuvi unitilgan edi. Faqat XIX asr boshlarida fransuz olimlari 1809-1828-yillari 48 tomli «Misr tasviri» nomli kitobni nashr etdilar. 1822 - yili Jak Fransua Shampolon qadimgi misr yozuvini o'qidi. Shampolon misrshunoslik asoslarini yaratgan olim hisoblanadi. Nemis olimlari Lepsius va Brugsh «Misr xronologiyasi», «Misr fir'avnlari to'g'risida kitob» asarlarini yaratdilar. XIX asrning 80-yillaridan boshlab misrshunoslikda yangi bosqich boshlandi.

Shampalyon Misr yozuvini o'qish uchun Rozett bitiktoshidan foydalangan edi. 1799 yili buyuk kashfiyot amalga oshirildi: Nil daryosi quyilishida bir qora bazalt taxta topildi. Bu taxta u yerda yuzlab yillar yotgan edi. Rozett shahri yaqinida topilgani uchun unga Rozett toshi degan nom berildi.

Rozett toshining nodirligi unga nomani uch tilda o'yib bitilganidadir. Bir noma yunontilida, ikkinchisi — ierogliflar, uchinchisi-misr yozuvining so'nggi shakllaridan, tez yozuv deb atalgan qisqartma ierogliflar edi. Shundan so'ng bu bitiklarni o'rganishga uzoq yillar urinildi. Yunoncha matnni o'qib, tushunish mumkin edi. Nihoyat, uni qolgan matnlar bilan qiyoslangach, ieroglif yozuvining asrlar davomida yashirin qolib kelgan siri ochildi. Bu ishni yosh frantsuz Jan-Fransua Shampolon amalga oshirdi. Natijada tarixchilar misrliklarning eramizdan avvalgi 3500 yilgacha bo'lgan hayoti, urf-odatlar va diniy marosimlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ierogliflar misr yozuvining eng qadimiy plakli hamda insoniyatga ma'lum bo'lgan ilk yozuv tizimlaridan bo'lgani uchun ham shunday sharoit yaratildi.

Aslida bular — rasm-bitiklardir. har bir rasm bir buyumni anglatadi. Vaqt o'tgan sayin bu yozuv rivojlanib, keyinchalik misrliklar tushunchalarni, tovush va so'zlarni yoza boshladilar. Yangi podsholik fir'avnlarning mumiylari «ombori» hisoblangan Dayr-al-Baxrdagi umumiy qabrda topilgan ko'pgina ashyolar diqqatga sazovordir. Bu ashyolar qadimgi Misr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Er. av. IV ming yillik boshlariga oid Yuqori Misrning poytaxti deb taxmin qilingan Enxab shahri dunyo tarixida barpo etilgan eng qadimgi shahar hisoblanadi. Misrda qadimgi Fayum vodiysidagi Illaxun shahri qoldig'i, El-Amarnadagi Axetaton shahri, Tanais kabi shaharlar qoldig'i arxeolog-tarixchi olimlar tomonidan qazib ochilib, tadqiq etugan.

Antik mualliflar asarlaridan Gerodot tarixi (er. av. V asr), Sisiliyalik Diodorning «Tarixiy kutubxona» asari «Strabon geografiyasi» (er. av. II—I asri) Plutarxning «Osiris» va «Isida» traktati qadimgi Misrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti to'g'risida batafsil ma'lumotlar beradi. Misr madaniyatining o'ziga xos jihatlaridan biri uning dinidir. Qadimgi Misr eng qadimgi davrdan boshlab milodiy 111—IV asrlargacha uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ular turli fanlar sohasida ko'plab bilimlarga ega bo'lsalar ham hali tabiat hodisalari oldida ojiz edilar. Ular Nil toshqini, zilzilalar. Sahroyi Kabir tomondan esadigan qum bo'ronlari. momaqaldiroq. sayvoralar va yulduzlarning harakatida qandaydir g'ayritabiiy kuch bor deb tasavvur qilganlar. Bu hodisalar misrliklarning dini va e'tiqodida o'z ifodasini topgan. Qadimgi Misr xalqlari ham din va diniy e'tiqodlarining xil- ma-xil ko'rinishlarini o'z turmush tarzlarida namoyon etganlar. Misrliklar e'tiqod qiladigan xudolarning ko'pligi bilan butun Sharq dunyosida dastlabki o'rindarda turadi. Manbalarda keltirilishieha, «Misr - ming xudolar mamlakati» deb tilga olinadi. Ma'lumki, 3-4-sulola namoyandalari podsholik qilgan davrda ular cheksiz hokimiyatga asoslangan Qadimgi Misr

despotiyasi tashkil topgan. Mazkur despotiya podshoning ilohiyligi haqidagi ta'limot negiziga qurilgan diniy e'tiqodlar majmuasi yordami bilan mustahkamlab berilgan. Manbalarga ko'ra, "Misr ming xudolar" mamlakati hisoblangan. Misr aholisi fir'avn hayoti vaqtidayoq xudolarga sig'ingandek unga sig'inganlar. Fir'avn oigandan keyin esa uni yer xudosi, osmon xudolarining merosxo'ri sifatida toshdan qurilgan g'oyat katta maqbaralarga dafn etganlar. M.av. VI—V asrlar fir'avnlari piramidalarining dafn-xona devorlarida yozilgan yozuvlar podshoni ilohiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan diniy e'tiqodlarni yorqin tasvirlab beradi. "Piramidalar matni" deb atalgan bu bitiklar o'sha zamondagi diniy e'tiqodlarning butun tizimini batafsil tasvirlab beradi. Podsho bu yozuvlarda tangri sifatida tasvirlangan. Bir yozuvda shunday deyilgan: "Ey Pepi, sen Osiris siyomosidagi xudo kabi uning taxtida o'tiribsan".

O'lgan podshoning osmonda xudolar orasida paydo bo'lishi matnlarda yangi xudoning paydo bo'lishi deb tasvirlangan. Qadimgi Misrda ibtidoiy din shakllaridan fetishizm, totemizm, animizm, quyoshparastlik, podshoni ilohiylashtirish, har xil tabiat hodisalariga va Misr podsholari - fir'avnlarga sig'inish mavjud bo'lgan hamda keng tarqalgan edi. Xrsitianlik dini tarqalgungacha bo'lgan davrda Misrda yaratilgan diniy matnlar va vodgorliklar uning taraqqiyotini urug'chilik jamoasi yemirilgan vaqtdan boshlab kuzatishga imkon beradi.

**Xulosa:** Shunday qilib, Misr va misrliklar dini va yozuvi ular ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Misr va misrliklar dinida qadimdan boshlab ularning xo'jalik hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiyoti va madaniyati u yoki bu darajada o'z ifodasini topgan. Shu bois Misr xalqlari tarixi, xo'jaligi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi tarixini o'rganishda misrliklar dini muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Xulosa sifatida shuni aytish joizki, Qadimgi Misr va misrliklar jahon madaniyati tarixida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ravshan Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent 2009-yil
2. Abdujabbor Kabirov "Qadimgi sharq tarixi" Toshkent 2016-yil
3. F.Boynazarov "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent 2004
4. Vsevolod Avdiev "Qadimgi Sharq tarixi" Toshkent 1964-yil

